UO‘K 397.4+94(575.1)

QO‘QON XONLIGI DAVRIDA FARG‘ONA VODIYSIDA KECHGAN ETNOSIYOSIY JARAYONLAR

(*XIX asr o‘rtalari*)

N.A. Olimov

Maqolada XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon xonligi davrida Farg‘ona vodiysida kechgan etnosiyosiy jarayonlar, mazkur jarayonlarda vodiyda yashovchi etnik guruhlarning ishtiroki mahalliy yozma manbalardagi ma’lumotlar asosida tahlil qilingan. Qo‘qon xonlari Sheralixon, Xudoyorxonning davlat boshqaruvi va ularning hukmronlik davrlaridagi siyosiy jarayonlarda o‘troq, ko‘chmanchi, yarimko‘chmanchi aholining ishtiroki yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon xonligi, Sheralixon, Xudoyorxon, Mallaxon, Musulmonqul, o‘zbeklar, tojiklar, qirg‘izlar, qipchoqlar, minglar.*

В статье на основе сведений местных письменных источников анализируются этнополитические процессы, происходившие в Ферганской долине в период Кокандского ханства в середине XIX века. Рассматривается участие этнических и этнографических групп региона в политической жизни. Освещена роль оседлого, кочевого и полукочевого населения в системе государственного управления и политических процессах в период правления Шерали-хана и Худояр-хана.

Ключевые слова: *Кокандское ханство, Ферганская долина, Шерали-хан, Худояр-хан, Малла-хан, Мусульманкул, узбеки, таджики, кыргызы, кыпчаки, минги.*

KIRISH

Qo‘qon xonligi o‘zbek xalqining davlatchilik tarixida alohida o‘rin tutadi. Ushbu xonlikning asosiy hududi geografik jihatdan Farg‘ona vodiysida joylashgan edi.

Uzoq davom etgan etnosiyosiy, migratsiya va integratsiya jarayonlari oqibatida XIX asr o‘rtalariga kelib Farg‘ona vodiysi aholisining etnik tarkibi tuzilish jihatidan ancha murakkab ko‘rinishga ega bo‘ldi. Bu davrda vodiy o‘troq, yarimo‘troq aholisining asosiy qismini o‘zbek va tojik xalqlari tashkil qilgan bo‘lsa, yarimko‘chmanchi hamda ko‘chmanchi aholisi esa qirg‘iz, qoraqalpoqlardan iborat bo‘lgan. Bundan tashqari, Farg‘ona vodiysi hududlarida o‘zbeklarning qipchoq, qirq, yuz, qurama, turk kabi etnik guruhlari ham yashagan. Ayni vaqtda vodiy hududlarida uyg‘urlar, qozoqlar va son jihatidan uncha ko‘p bo‘lmagan boshqa xalq vakillari ham istiqomat qilmoqda edilar. Mazkur xalqlarning har biri xonlikdagi etnosiyosiy jarayonlarda o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan.

MATERIALLAR VA USULLAR

Maqolada qo‘yilgan masala Is’hoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” [1], Niyoz Muhammad Ho‘qandiyning “Tarixi Shohruhiy” [2], Mirzo Rahim Toshkandiyning “Ansob as-salotin va tavorix al-havoqin” [3], Shavqiy Namangoniyning “Jangnomayi Xudoyorxon” [4], Muhammadaziz Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” [5] kabi mahalliy tarixchilar tomonidan yozilgan asarlar hamda o‘rganilayotgan davrda Qo‘qon xonligiga tashrif buyurgan ingliz, rus elchilari, sayyohlari, olimlari asarlaridagi ma’lumotlar asosida yoritilgan.

Muammoni tadqiq etishda tarixiy-xronologik, analiz va sintez tahlil usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

Yuqorida ta’kidlanganidek, Qo‘qon xonligi davrida Farg‘ona vodiysi aholisi haqida bir qancha mahalliy yozma manbalarda va xorijiy sayyohlarning asarlarida ma’lumotlar uchraydi. Mana shunday muhim tad-

qiqotlardan biri amerikalik elchi va tadqiqotchi Yujin Skaylerning “Turkiston” nomli asari hisoblanadi [6. B. 271]. Mazkur asarda Qo‘qon xonligi aholisi, etnik tarkibi, urf-odat va marosimlari haqida qiziqarli ma’lumotlar mavjud.

XIX asrning o‘rtalarida Qo‘qon xonligi aholisi soni bir millionga yaqin bo‘lib, aholi o‘troq va ko‘chmanchi tarzda hayot kechirgan. Yujin Skaylerning “Turkiston” asarida o‘troq aholining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil etgani, Qo‘qon va g‘arbiy hududlarda esa tojiklar istiqomat qilgani, shuningdek, Farg‘ona vodiysi hududlarida kam sonli yahudiy, hind, afg‘on, lo‘li kabi xalqlar yashaganligi haqidagi ma’lumotlar ham keltirilgan [6. B. 271].

Mulla Niyoz Muhammad Ho‘qandiyning “Tarixi Shohruhiy” asari Farg‘ona vodiysi aholisining etnosiyosiy jarayonlarda ishtirokini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Chunki ushbu manbada Farg‘ona vodiysi hududida yashagan turli etnik jamoalar (urug‘, qabila, elat va boshqalar)ning joylashuvi, etnik tuzilishi hamda ularning Qo‘qon xonligidagi etnosiyosiy va etnomadaniy jarayonlardagi ishtiroki haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur asarda Farg‘ona vodiysining o‘troq aholisini o‘zbeklar va tojiklar, ko‘chmanchi va yarimko‘chmanchi aholisini esa qirg‘iz, qipchoq, qoraqalpoq, turk, cho‘nbag‘ish hamda qalmoq kabilar tashkil etganligi qayd qilingan [7. B. 78].

Farg‘ona vodiysi hududlarida o‘zbeklarning “ming”, “turk”, “yuz”, “qurama”, “qipchoq” kabi bir qancha etnik guruhlari istiqomat qilishi qayd qilingan. Qo‘qon xonligida o‘troq o‘zbeklar xonlikning etnosiyosiy va etnomadaniy jarayonlarida muhim o‘rin egallagan. Sheralixon va boshqa Qo‘qon xonlari o‘zbeklarning ming urug‘idan bo‘lgan. Xonlikning yirik shaharlaridagi hokimlik va shunga o‘xshash katta lavozimlarga ming urug‘idan tayinlangan.

“Tarixiy Shohruhiy” asaridagi ma’lumotlarga ko‘ra, Qo‘qon xonligiga Buxoro amirligining bosqinidan bir necha oy o‘tib, o‘troq o‘zbeklar qipchoq hamda qirg‘izlar bilan birga taxtga Sheralixonni ko‘taradilar. Sheralixonning taxtga kelishida ming urug‘ining sardori Muhammadnazarbek katta rol o‘ynaydi [2. B. 456]. “Tarixi Shohruhiy” asarida Farg‘ona vodiysida yashagan turli etnik jamoalarning joylashuvi haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Manbada ko‘rsatilishicha, qipchoqlar vodiyning asosan Qoradaryo va Norin daryolari oralig‘i hamda unga tutash hududlarda, qirg‘izlar esa Farg‘ona vodiysining tog‘ va tog‘oldi mintaqalarida yashaganlar.

XIX asr o‘rtalarida qipchoq qabilasi boshliqlari Muhammadnazarbiy, Mulla Xolbiy, O‘tambiylar Qo‘qon xonligi taxtiga Sheralixonning kelishiga da’vat qiladilar. Rus tarixchisi N.Petrovskiyning ma’lumotlariga ko‘ra, Qo‘qon xonligida o‘troq va yarimko‘chmanchi aholi o‘rtasida hokimiyat uchun kurash Muhammadalixon davrida boshlangan [8. B. 735]. Is’hoqxon Ibratning “Tarixi Farg‘ona” nomli asaridagi ma’lumotlarga ko‘ra esa, XIX asr o‘rtalaridan boshlab Qo‘qon xonligi etnosiyosiy hayotida yarimko‘chmanchi hayot tarziga ega bo‘lgan qipchoq va qirg‘izlar muhim o‘rin tuta boshlagan. Qo‘qon xoni Sheralixon taxtga kelishiga yordam bergan qipchoq qabilasining sardori Musulmonqulning mingboshi etib tayinlanishi bilan qipchoqlarning mavqeyi osha boshlagan. “Sheralixon zamonida hukumat qirg‘iz-u qipchoq qo‘lida erdi” [1. B. 301]. Sheralixon taxtga kelgandan so‘ng Musulmonqul qipchoqni mingboshi etib tayinlaydi, Musulmonqul esa ko‘p ishlarda qipchoq va qirg‘iz etnik jamoalariga tayanadi. So‘ng Musulmonqul Sheralixonga qarshi fitna uyushtirib, uni qatl ettiradi. Uning o‘rniga 1844-yilda Olimxonning o‘g‘li Murodxon taxtga o‘tiradi [9. B. 35]. Ammo bir necha kundan so‘ng qipchoq lashkari Murodxonning o‘rniga Xudoyorxonni taxtga o‘tqazadi [10. B. 125].

Musulmonqul Xudoyorxon zamonida ham katta mavqega ega bo‘lgan va mingboshi lavozimida faoliyat yuritgan. Musulmonqul harbiy ish va davlat boshqaruvi lavozimlariga qipchoqlarni tayinlaydi, oqibatda xonlikda qipchoqlarning nufuzi oshib ketadi [11. B. 318].

Shavqiy Namangoniyning “Jangnomayi Xudoyorxon” asari ham XIX asr o‘rtalarida qipchoq etnik guruhining Qo‘qon xonligi etnosiyosiy va etnomadaniy hayotidagi o‘rni, qipchoq urug‘i hamda urug‘ yetakchilari faoliyati haqida ma’lumot beruvchi muhim yozma manbalardan biri hisoblanadi. Asardagi ma’lumotlarga ko‘ra, Qo‘qon xonligidagi nafaqat siyosiy va harbiy boshqaruv, balki sug‘orish tizimi hamda qozilik ishlari ham qipchoqlarning qo‘lida bo‘lgan [12. B. 17]. Qipchoqlar o‘rtasida hokimiyat uchun kurash keskin bo‘lgan, ushbu kurashda ularning turli urug‘lari faol ishtirok etgan. Musulmonqulning uch marotaba mingboshilik lavozimidan olinishida boshqa qipchoq urug‘larining faol ishtirok etganligi mazkur kurashning naqadar keskin bo‘lganligidan dalolat beradi [7. B. 23].

Ma’lumki, Farg‘ona vodiysida qipchoqlarning boshqa urug‘lari ham istiqomat qilgan [13. B. 87]. Shavqiy Namangoniyning “Jangnomayi Xudoyorxon” asarida qipchoqlarning o‘lmas urug‘i va o‘sha urug‘dan bo‘lgan Hotamqul haqida shunday ma’lumotni uchratamiz:

Bir urug‘in derdilar o‘lmas,
Biyla o‘lmakni kishi ko‘rmas.
O‘lmas ahlidin erdi Hotamqul,
Zulm ishig‘a hamisha ul mashg‘ul [4. B. 30].

Shuningdek, mazkur asarda o‘lmas urug‘idan Mirzod haqida ham ma’lumotlar bitilgan bo‘lib, uning Marg‘ilonni egallaganligi ham qo‘shimcha qilingan:

Mirzod o‘lmasdin ekdi ey jon,
Marg‘inonni olub edi, ul jon [4. B. 31].

“Jangnomayi Xudoyorxon” asarida qipchoqlarning elaton, yashik va yettiqashqa kabi urug‘lari haqida ham ma’lumot berilib, ularning sodir bo‘lgan voqealardagi ishtiroki alohida qayd etilgan. Masalan, Shavqiy Namangoniy qipchoqlarning yettiqashqa urug‘i Namangan, Shahrixon hududlarida janglar qilganligi haqida ma’lumotlarni keltirgan. Hozirda Andijon viloyati Baliqchi tumanida Yettiqashqa nomli qishloq bor.

Musulmonqul Farg‘ona vodiysidagi etnomadaniy jarayonlarda ham o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan. Masalan, u aholi dehqonchiligini rivojlantirish uchun Chinobod arig‘ini chiqaradi hamda xonga atab Qo‘qon shahrida madrasa qurdiradi. Musulmonqul davrida qipchoqlarga ko‘plab yerlar va imtiyozlar beriladi. Ushbu holat esa xonga va uning boshqa etnik guruhlarga mansub amaldorlariga yoqmagan. “Binobarin, bu jabr-u zulmlardan xalos bo‘lmoq uchun Musulmonqul ziddig‘a ish qila boshlaganlar” [1. B. 298]. Masalan, XIX asr o‘rtalarida o‘troq aholiga mansub qorateginlik Qanoatshoh Musulmonqulga qarshilik qilgan [12. B. 17]. Bu esa xonlikda o‘troq va yarimko‘chmanchi aholi orasidagi etnosiyosiy jarayonlarni yanada og‘irlashtirgan.

Biroq keyinchalik yuz bergan etnosiyosiy jarayonlar natijasida qipchoq qabilasiga mansub urug‘lar o‘rtasida o‘zaro nizolar kelib chiqadi. Natijada xonlik hududida Musulmonqulga qarshi norozilik harakati kuchayadi va u mingboshilikdan bo‘shatiladi. Musulmonqul o‘z mavqeyini tiklash niyatida ruslar bilan aloqa o‘rnatishga intiladi va ularning vakili bo‘lgan V.V.Velyaminov-Zernov bilan 1853-yilning bahorida maxfiy tarzda uchrashadi. Musulmonqulning rus qo‘mondonligi vakili bilan uchrashganligi va hokimiyatni qo‘lga olishga intilayotgani haqidagi ma’lumotlar o‘zbek hamda qirg‘iz zodagonlari orasida jiddiy xavotir uyg‘otdi. Natijada ular qipchoqlarning siyosiy ta’sirini cheklash yo‘llarini izlab, Xudoyorxonni o‘z tomonlariga og‘dirdilar va 1853-yilda qipchoqlarga qarshi qirg‘in jarayonini boshlab yubordilar [11. B. 319]. Mazkur qirg‘inda Musulmonqul bilan birga 20 mingdan ortiq qipchoq qatl qilingan [14. B. 33]. Jadid namoyondalaridan Abdulla Qodiriy o‘zining “O‘tkan kunlar” romanida qipchoq qirg‘inini Yusufbek hoji obrazi orqali qoralaydi. Yusufbek hoji qipchoqlarga qarshi isyon ko‘tarayotgan aholiga qarata shunday deydi: “Biz qipchoqqa qilich ko‘targanda, o‘ris bizga to‘p o‘qlaydir. Siz dunyoda o‘zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko‘rsangiz, men boshqa yovni har zamon o‘z yaqinimga yetgan ko‘raman” [15. B. 60]. Ruslar xonlikdagi ushbu vaziyatdan foydalanib, Oqmasjid qal’asiga hujum qiladi hamda qal’ani egallaydi.

XIX asr o‘rtalarida xonlik etnosiyosiy jarayonlarida qipchoqlarning tutgan o‘rni haqida vengriyalik mashhur sayyoh Arminiy Vamberining “O‘rta Osiyo bo‘ylab sayohat” (“Travels in Central Asia”) nomli asarida ham muhim ma’lumotlar mavjud [16]. U 1863–1864-yillarda Markaziy Osiyoga safari davomida Farg‘ona vodiysida ham bo‘lgan. Vamberi asarida o‘zbeklarning 32 ta urug‘i haqida, shu bilan birga mahalliy xalqlarning xo‘jaligi, ularning joylashuvi haqida ma’lumotlar yozib qoldirilgan [17. B. 226]. Masalan, asarda Namangan atrofida yashovchi qipchoqlar va ularning mayda urug‘larining joylashuvi haqida ma’lumotlar keltirilgan [16. B. 380]. Hozirgi kunda ham Namangan viloyatining Norin, Uchqo‘rg‘on tumanlarida qipchoq urug‘lari nomlari bilan ataluvchi etnotoponimlar mavjud.

“Tarixi Shohruhiy” asarida yozilishiga ko‘ra, Xudoyorxon Farg‘ona vodiysida qipchoqlarga qarshi kurashda yuz qabilasidan bo‘lgan O‘ratepa hokimi Is’hoqbek xizmatidan foydalangan. Keyinchalik xon uni Andijonga hokim etib tayinlagan [2. B. 198]. Shuningdek, Do‘st Muhammad yuz, Mullo Sulton yuz kabilar ham XIX asr ikkinchi yarmida Qo‘qon xonligi etnosiyosiy jarayonlarida faol ishtirok etgan.

XIX asr o‘rtalarida qirg‘izlar ham Qo‘qon xonligi etnosiyosiy hayotida muhim rol o‘ynagan. “Tarixi Farg‘ona” asarida Sheralixonning taxtga o‘tirishiga qipchoqlar bilan qirg‘izlar ham birday hissa qo‘shgani va ular ham xonlik siyosiy hayotida muhim o‘rin tutishi yozilgan. Sheralixonning ikki rafiqasi hamda Musulmonqul qipchoqning qaynotasi, Ketmontepa hokimi Irisqulibiy ham qirg‘iz bo‘lganligi asarda qayd etilgan [1. B. 297].

O‘rganilayotgan davrda Pomirning Qorategin, Voxan, Darvoz, Badaxshon, Shug‘non, Rushon, Chatror kabi aholi manzilgohlaridan ko‘chib kelib, Farg‘ona vodiysida yashayotgan tog‘lik tojiklar ham xonlik etnosiyosiy jarayonlarida ishtirok etgan, ularning asosiy qismi Qo‘qon xonligi qo‘shinida xizmat qilgan [14. B. 25]. Qo‘qon xonligi hududidagi mazkur tojik aholisiga nisbatan g‘alcha (“tog‘lik tojik”) atamasi qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin [7. B. 81]. Bugungi kunda ham vodiyning ayrim hududlarida “g‘alcha” nomli etnotoponimlar uchraydi. Masalan, Farg‘ona viloyati Beshariq tumanida G‘alcha nomli qishloq mavjud. Bundan tashqari, o‘sha davrda Andijonda Xolnazar tojik ismli amaldor bo‘lganligi manbalarda qayd etilgan [1. B. 199]. Rossiya imperiyasi Qo‘qon xonligi hududiga bostirib kirganda Amirlashkar Aliquli

Turkiston shahriga hokim etib tojiklardan Davlat tojik ismli shaxsni tayinlagan. Bundan bilish mumkinki, Qo‘qon xonligi etnosiyosiy hayotida XIX asr o‘rtalarida tojiklar ham muhim rol o‘ynagan.

“Tarixi Farg‘ona” asarida Qo‘qon xonligining siyosiy hayotida qozoqlarning muhim o‘rin tutgani haqida ma’lumotlar ham uchraydi. Asarda Amirlashkar Aliquli Chimkentda yig‘ilish qilib, qozoq qabilalari sardori Boyzoqbiy bilan muzokara olib borgani, qozoqlarning Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari to‘g‘risida muhim ma’lumotlar keltirilgan [18. B. 93].

XIX asr ikkinchi yarmida xonlik etnosiyosiy jarayonlarida qoraqalpoqlarning faol ishtirok etgan. 1857-yilda qoraqalpoqlardan Fozilbek qoraqalpoq mingboshi lavozimini egallagan, XIX asr 60-yillarida Do‘stmuhammad qoraqalpoq Baliqchiga hokim etib tayinlangan. Farg‘ona vodiysi hududlariga qoraqalpoqlarning ko‘chib kelishlarining bir nechta sabablari bor: ularning ba’zilari majburan ko‘chirilgan, ma’lum bir qismi o‘zlari xohlab, qolganlari esa xo‘jalik yuritish uchun qulay joylarni izlab kelishgan [19. B. 7]. Qoraqalpoqlar etnik va xo‘jalik-madaniy an’analarini saqlab qolgan holda vodiyning Sirdaryo hamda Qoradaryo qirg‘oqlaridagi joylarga ko‘chib kelganlar.

Mallaxon o‘z ukasi Xudoyorxonga qarshi qirg‘iz, qipchoq, turk, qoraqalpoq, jonbag‘ish, qalmoqlardan iborat qo‘shin tuzib, xonga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi [1. B. 229]. Ushbu isyon natijasida 1858-yilda Mallaxon taxtga o‘tiradi [11. B. 35]. Uning taxtga kelishida qirg‘izlardan bo‘lgan Olimbiy qirg‘iz, Qo‘shchibiy qirg‘iz muhim o‘rin tutgan. 1862-yilda qirg‘izlardan Olimbiy farmonchi va Xidir eshikog‘asi, turk etnik guruhiga mansub Xudoynazar dodxoh hamda yuz etnik guruhiga mansub Do‘stmuhammad mehtar kabilar fitna orqali Mallaxonni qatl qiladilar hamda taxtga Shohmurodni o‘tqazadilar, ammo u taxtda ko‘p o‘tirmaydi, Xudoyorxon Buxoro amirining yordamida ikkinchi marotaba hokimiyatni egallaydi [11. B. 320]. Ushbu isyonda qirg‘izlarning o‘ttiz o‘g‘ul urug‘idan Xidir dodxoh ham ishtirok etgan [1. B. 230].

1863-yildan hokimiyat amalda Mullo Aliquli qo‘liga o‘tadi [20. B. 18] va u xonlikda yana qipchoqlarning nufuzini tiklashga urinadi. Mullo Aliquli davrida ruslar avval Turkiston, keyin Chimkentga hujum qiladi. Ruslar hujum qilgan paytda Turkiston hokimi Mirzo Davlat tojik edi. Niyozbek qal’asi uchun janglarda Mullo Aliquli rus sarkardasi Chernyayevga qarshi jang qiladi. Rus bosqini arafasida taxtga Xudoyqulibek o‘tiradi. Ammo taxtda ko‘p o‘tirmasdan, bir qancha amaldorlari bilan Koshg‘arga, Yoqubbek otaliq oldiga ketadi. Xudoyqulibek davrida mingboshi qipchoqlardan Bekmuhammad qipchoq bo‘ladi. Xudoyqulibekdan so‘ng taxtga yana Xudoyorxon o‘tiradi. Xudoyorxon qirg‘iz, qipchoq, sartiya xalqlarini birlashtiradi.

1865-yilda Xudoyorxon uchinchi marta taxtga kelganda qipchoq, qirg‘iz kabi etnik jamoalarga mansub aholi Koshg‘arga ko‘chib o‘tgan. Shuningdek, asarda rus aholisining vodiy hududiga joylashtirilishi haqidagi ma’lumotlar ham keltirilgan [5].

1867-yilda qirg‘izlar tomonidan So‘xda ko‘tarilgan qo‘zg‘olon tafsiloti berilgan. Demak, ushbu qo‘zg‘olon orqali So‘xda o‘zbek, tojiklardan tashqari qirg‘izlar ham yashaganligini bilib olish mumkin. Bundan tashqari, asarda Ma’mur boshchiligidagi qirg‘izlar qo‘zg‘oloni, ruslarning Uchqo‘rg‘on va Andijonga bostirib kirishi haqida ham ma’lumotlar keltirilgan [3. B. 101].

XIX asr 70-yillarida Qo‘qon xonligida qipchoq va qirg‘izlarning markaziy hokimiyat uchun kurashi avj oladi. Abdurahmon Oftobachi qirg‘izlardan Ma’murni Po‘latxon ibn Murodbek nomi bilan taxtga o‘tqazadi. O‘sha paytda qirg‘izlarga mansub Abdullohbek ibn Olimbek qirg‘iz Qo‘qonga hujum qilib, taxtga davo qilgan edi. XIX asr 70-yillarida Qo‘qon xonligiga va rus bosqiniga qarshi kurashgan Farg‘ona vodiysidagi qirg‘iz urug‘lari haqida ma’lumotlar X.Bobobekovning “Po‘latxon qo‘zg‘oloni” asarida ham keltirilgan. Asarda keltirilishicha, Abdulg‘ozi qirg‘izlarning Qutlug‘-Said urug‘iga mansub bo‘lgan. Shuningdek, Qo‘qon xoniga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targanlar orasida Ma’mur, Mo‘min, Abdulg‘ozi kabi qirg‘iz aholisi vakillari bor edi [21. B. 8].

Tarixdan ma’lumki, kelib chiqishi qipchoqlardan bo‘lgan Musulmonqulning o‘g‘li Abdurahmon oftobachini Xudoyorxon mingboshi lavozimiga tayinlaydi. Shuningdek, manbada 1873-yilda qirg‘iz, qipchoqlarning qo‘zg‘oloni va uning oqibatlari, ayrim yarimko‘chmanchi xalqlarning urug‘lari haqida ma’lumotlar ham keltirilgan. Ushbu asarda qirg‘izlarning o‘ttiz o‘g‘ul, munduz kabi urug‘ nomlari, qirg‘iz, qipchoqlarning Uchqo‘rg‘on, O‘sh, O‘zgan hamda Andijonning sharqiy hududlarida yashaganligi haqidagi ma’lumotlar ham qayd etilgan.

Uyg‘urlar Sharqiy Turkiston hududlarida qadimdan o‘troq hayot kechirgan va Farg‘ona vodiysi xalqlari bilan iqtisodiy, madaniy hamda siyosiy aloqalar olib borganlar [22. B. 40]. Sharqiy Turkistondan ko‘chib kelgan aholi ham Qo‘qon xonligi etnosiyosiy jarayonlarida muhim o‘rin tutgan. XIX asr 70-yillarida ruslarning Qo‘qon xonligiga hujumini qaytarishda Marg‘ilon va Baliqchida Sharqiy Turkistondan bo‘lgan Valixon to‘ra faol qatnashadi [5]. Umuman olganda, XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon xonligi hududlarida 300000 ga yaqin uyg‘urlar yashagan [23. B. 172]. Ular o‘zlari oldin yashagan hududlar nomi bilan koshg‘arlik, yorkentlik, turfanlik va ijtimoiy-turmush belgilari bo‘yicha taranchi (dehqon) deb atalganlar [25. B. 489]. Bundan tashqari, Sharqiy Turkistondan ko‘chib o‘tganlar Farg‘ona vodiysi aholisi orasida tog‘lik nomi bilan ham ma’lum bo‘lgan. Ular o‘z navbatida oqtog‘-

lik va qoratog‘lik kabi guruhlarga bo‘lingan. Farg‘ona vodiysida oqtog‘liklar nisbatan ko‘pchilikni tashkil qilgan. Sharqiy Turkistondan vodiy hududlariga ko‘chib o‘tgan aholining soni haqida to‘xtalganda shuni ham hisobga olish kerakki, ular Farg‘ona vodiysiga faqat etnosiyosiy jarayonlar tufayli emas, vodiyga ish izlab ham ko‘chib o‘tganlar.

Shuningdek, kelib chiqishi Afg‘onistondan bo‘lgan kishilar Qo‘qon xonligi qo‘shinida xizmat qilganligi haqidagi ma’lumotlar ayrim manbalarda mavjud. Masalan, yevropacha harb ishi bilan yaxshi tanish bo‘lgan Jamador afg‘on ismli kishi xon qo‘shinlarining to‘pchilar guruhiga qo‘mondonlik qilganligi qayd etilgan [7. B. 81].

Ma’lumki, 1876-yilda Rossiya imperiyasi Qo‘qon xonligini egallab, uning o‘rnida Farg‘ona viloyatini tashkil qiladi [18. B. 210]. Xonlik tugatilgandan so‘ng Farg‘ona vodiysiga ruslar va no‘g‘aylar ko‘chib kela boshlagan. Bundan tashqari, Buxoro va Samarqanddan yahudiy va hindlar Qo‘qonga kelib joylasha boshlagan. Ko‘chib kelganlar esa asosan savdogarlik bilan shug‘ullangan [3. B. 112].

Keyingi yillarda vodiy aholisining soni ortib bordi. Shu bilan birga, o‘troq aholiga yarimko‘chmanchi etnik guruhlarning konsolidatsiyalashuv jarayoni tezlashganini ham ko‘rish mumkin. Ammo hali-hanuz ayrim etnik guruhlarning bir qismi o‘zlarini azaliy etnonimlari bilan atab kelmoqda edilar.

XULOSA

Yuqorida ko‘rib chiqilgan mahalliy yozma manbalar, xorijlik olimlarning asarlaridagi ma’lumotlar tahlilidan ko‘rinadiki, ularda XIX asr o‘rtalarida Qo‘qon xonligi davrida Farg‘ona vodiysidagi aholining joylashuvi, etnik tarkibi va soni haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud bo‘lib, muayyan darajada vodiydagi etnik holat, etnosiyosiy jarayonlarni aks ettiradi. Ushbu manbalarning muhimligi shundaki, mualliflarning ko‘pchiligi o‘zi guvoh bo‘lgan voqealarni bayon qilgan, bu esa manbalarning ishonchliligini yanada oshirgan.

Adabiyotlar:

1. *Исҳоқхон Ибрат.* Фарғона тарихи /Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Бобобеков, Маҳмуд Ҳасаний. – Тошкент: Камалак, 1991. – 336 б.

2. *Мулла Ниёз Муҳаммад Ҳўқандий*. Тарихи Шоҳруҳий / Ш.Воҳидов таржимаси ва изоҳи. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 700 б.

3. *Мирзаолим Муширф*. Ансоб ас-салотин ва таворих ал-хавоқин (Султонлар насаби ва хоқонлар тарихи /Нашрга тайёрловчилар: А.Матғозиев, М.Усмонова. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – 128 б.

4. *Лутфуллоев Ҳ., Қўлдашев Ш.* Қўқон хонлиги тарихи назмий манбаларда (“Воқеоти Муҳаммадалихон” ва “Жангномайи Худоёрхоний”). – Тошкент: Академнашр, 2016. – 80 б.

5. *Муҳаммадазиз Марғилоний*. Тарихи Азизий / Нашрга тайёрловчилар Ш.Воҳидов, Д.Сангирова. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 110 б.

6. *Schuyler E*. Turkistan: Notes of a journey in Russian Turkistan, Khokand, Bukhara and Kuldja. Vol. II. – New York, 1885. – 463 p.

7. *Бейсембиев Т.К.* “Тарихи Шахрухи” – как исторический источник. Алма-ата: Наука, 1987. – 200 с.

8. *Петровский Н.Ф.* Очерки Кокандского ханства // Вестник Европы. – СПб., 1875. – № 10. – С. 722–757.

9. *Бабабеков Х*. История Коканда. – Ташкент: Фан, 2006. – 279 с.

10. *Воҳидов Ш*. Қўқон хонлиги тарихи (хонлик тарихи – манбаларда). – Тошкент: Академнашр, 2014. – 316 б.

11. *Бобоев Ҳ., Хидиров З., Шодиев Ж., Аҳмедов М.* Ўзбек давлатчилиги тарихи. II китоб. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – 472 б.

12. *Худойқулов Т.Д*. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти: Тарих фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2009. – 172 б.

13. *Шаниязов К.Ш.* К этнической истории узбекского народа (историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента). – Ташкент, 1974. – 158 с.

14. *Бобобеков Ҳ.* Қўқон тарихи. – Тошкент: Фан, 1996. – 240 б.

15. *Karimov B*. Jadidlar. Abdulla Qodiriy. – Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 160 б.

16. Travels in Central Asia being the account of a journey from Teheran across the Turkoman desert on the eastern shore of the Caspian to Khiva, Bokhara and Samarcand performed in the year 1863 by Arminius

Vaambery, Member of Hungarian Academy of Pesth, by whom he was sent on this scientific mission. London. John Murray, Albemarle Street, 1864. – 443 p.

17. Ўзбекистон тарихи. 6-жилд / Асқаров А., Азамат Зиё., Абдуҳалимов Б. ва бошқ. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. – 488 б.

18. *Sodiqov N., Jo'rayev N.* O'zbekiston tarixi (I kitob). – Toshkent: Sharq, 2011. – 350 b.

19. *Толстова Л.С.* Каракалпаки Ферганской долины. – Нукус: Каракалпакское государственное издательство, 1959. – 182 с.

20. *Воҳидова К.А.* Исҳоқҳон Жунайдуллоҳхўжа Ибрат ва унинг илмий-тарихий мероси: Тарих фан. номз. …дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 25 б.

21. *Бобобеков Ҳ.* Пўлатхон қўзғолони. – Тошкент, 1996. – 60 б.

22. *Литвинский Б.А*. Исторические судьбы Восточного Туркестана и Средней Азии (проблемы этнокультурной общности) // В кн.: Восточный Туркестан и Средняя Азия. История. Культура. Связи. – Москва: Наука, 1984. – С. 4–28.

23. *Валиханов Ч.Ч.* Материалы и исследования о Кашгарии / В кн.: Собрание сочинений в пяти томах. Том II. – Алма-Ата, Казахской советской энциклопедии, 1962. – 416 с.

24. Народы Средней Азии и Казахстана (этнографические очерки) / Под ред. С.П.Толстого и др. В 2-х томах. Том 2. – Москва: Издательство Академии наук СССР, 1963. – 779 с.

25. *Зиёева Д.Ҳ.* Ўзбекистон тарихига оид манба ва тадқиқотлар (XIX аср – XX аср бошлари). – Тошкент: Nurafshon business, 2022. – 456 б.

ETHNOPOLITICAL PROCESSES IN THE FERGANA VALLEY DURING THE KOKAND KHANATE

(In the mid-19th century)

Nodirbek A.Olimov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Ijtimoiy fanlar – Scientific Bulletin. Series: Social Research. 2025. 7(91). 20-27.

[1]Andijan Regional Center of Pedagogical Excellence. Presidential School in Andijan, Andijan, 170120, str. Istiklal, 8. (Uzbekistan). E-mail: avxtxqtumoi@exat.uz.

Key words: Kokand Khanate, Sherali Khan, Khudoyor Khan, Malla Khan, Musulmonqul, Uzbeks, Tajiks, Kyrgyz, Kipchaks, Ming.

The article is analyzed the ethnopolitical processes that took place in the Fergana Valley during the Kokand Khanate in the mid-19th century, the participation of ethnic and ethnographic groups living in the valley in these processes, based on information from local written sources. The participation and significance of the settled, nomadic, and semi-nomadic population in the state administration of the Kokand khans Sherali Khan and Khudoyor Khan and the political processes during their reign are highlighted.

The Kokand Khanate occupies a special place in the history of the statehood of the Uzbek people. Since the main territory of this khanate was geographically located in the Fergana Valley, information about the participation of the valley's population in ethnopolitical processes in the middle of the 19th century is given below.

As a result of prolonged ethnopolitical and migration processes, by the middle of the 19th century, the ethnic composition of the population of the Fergana Valley had a rather complex appearance. During this period, Uzbeks, Kyrgyz, and Tajiks were the main inhabitants of the Fergana Valley. At the same time, Uyghurs, Karakalpaks, and representatives of other, relatively small peoples also lived in the valley.

The issue raised in the article is highlighted based on works written by local historians such as Is'hoqxon Ibrat's "Tarixi Farg'ona," Niyoz Muhammad Xo'qandiy's "Tarixi Shohruxiy," Mirzo Rahim Toshkandiy's "Ansob as-salotin va tavorix al-havo-

qin," Shavqiy Namangoniy's "Jangnomayi Xudoyorxon," and Muhammadaziz Marg'iloniy's "Tarixi Aziziy," as well as information from the works of British and Russian ambassadors, travelers, and scholars who visited the Kokand Khanate during the period under study.

In the study of the problem, historical-chronological, analysis, and synthesis methods were used. In the Kokand Khanate, settled Uzbeks occupied an important place in the ethnopolitical and ethnocultural processes of the khanate. Sherali Khan and other Kokand khans were from the Ming tribe of Uzbeks. He was appointed from the Ming clan to governorship and similar high positions in the khanate's major cities.

Thus, from the analysis of the above-mentioned local written sources and the works of foreign scholars, it can be seen that they contain valuable information about the distribution, ethnic composition, and population of the Fergana Valley during the Kokand Khanate in the mid-19th century, reflecting to a certain extent the ethnic situation and ethnopolitical processes in the valley. The significance of these sources lies in the fact that most of the authors described the events they witnessed, which further enhanced the reliability of the sources.

References:

1. Is'hoqxon Ibrat. (1991) *Farg'ona tarixi* [History of Fergana]. Prepared for publication by H.Bobobekov, H.Mahmud. Tashkent: Kamalak.

2. Mulla Niyoz Muhammad Xoqandiy. (2014) *Tarixi Shohruhiy* [Tarixi Shahruhi]. Translated and commented by Sh.Vokhidov. Tashkent: Turon zamin ziyo.

3. Mirzaolim Mushrif. (1995) *Ansob as-salotin va tavorih al-havoqin (Sultonlar nasabi va hoqonlar tarixi* [Ansab al-salatin and tawarih al-hawaqin. Genealogy of Sultans and History of Khagans]. Prepared for publication by: A.Matg'oziyev, M.Usmonova. Tashkent: Gafur Gulom publishing house Literature and art.

4. Lutfulloev, Kh., Qoldashev, Sh.(2016) *Qo'qon xonligi tarixi nazmiy manbalarda* (*"Voqeoti Mukhammadalixon" va "Jangnomayi Hudoyorxoniy"*) [The history of the Kokand Khanate in poetic sources ("Vaqeoti Mukhammadalikhan" and "Jangnomayi Khudoyorkhani")]. Tashkent: Akademnashr.

5. Muhammadaziz Marg'iloniy. (1999). *Tarixi Aziziy* [Tarixi Azizi]. Prepared for publication by Sh.Vokhidov, D.Sangirova. Tashkent: Ma'naviyat.

6. Schuyler, E. (1885) *Turkistan: Notes of a journey in Russian Turkistan*, Khokand, Bukhara and Kuldja. Vol. II. New York.

7. Bejsembiev, T.K. (1987) "*Tarihi Shahruhi" – kak istoricheskij istochnik* [Tarihi Shahruhi - as a historical source]. Alma-ata: Nauka.

8. Petrovskij, N.F. (1975) Ocherki Kokandskogo hanstva [Essays of the Kokand Khanate]. *Vestnik Evropy*. Saint Petersburg. No 10. Pp. 722-757.

9. Bababekov, H. (2006) *Istoriya Kokanda* [History of Kokand]. Tashkent: Fan.

10. Vokhidov, Sh. (2014) *Qo'qon xonligi tarixi* (xonlik tarixi – manbalarda) [History of the Kokand Khanate (History of the Khanate - in Sources)]. Tashkent: Akademnashr.

11. Boboev, Kh., Khidirov, Z., Shodiev J., Akhmedov, M. (2009) *O'zbek davlatchiligi tarixi* [History of Uzbek Statehood]. Book II. Toshkent: Fan va tekhnologiya

12. Hudoyqulov, T.D. (2009) *XIX asrda Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti* [Socio-political, economic and cultural life of the Kokand Khanate in the 19th century]. The Dissertation for the Candidate of Historical Sciences. Tashkent.

13. Shaniyazov, K.Sh. (1974) *K etnicheskoj istorii uzbekskogo naroda (istoriko-etnograficheskoe issledovanie na materialah kipchakskogo komponenta)* [On the ethnic history of the Uzbek people (historical and ethnographic research on the materials of the Kipchak component)]. Tashkent: Fan.

14. Bobobekov, Kh. (1996) *Qo'qon tarixi* [History of Kokand]. Tashkent: Fan.

15. Karimov, B. (2022) Jadidlar. Abdulla Qodiriy [Jadids. Abdulla Qodiri]. Tashkent. Yoshlar nashriyot uyi.

16. (1864) *Travels in Central Asia being the account of a journey from Teheran across the Turkoman desert on the eastern shore of the Caspian to Khiva, Bokhara and Samarcand performed in the year 1863 by Arminius Vaambery*, Member of Hungarian Academy of Pesth, by whom he was sent on this scientific mission. London. John Murray, Albemarle Street.

17. Asqarov, A. (et.al) (2023) *O'zbekiston tarixi* [History of Uzbekistan]. Vol. 6. Tashkent: O'zbekiston.

18. Sodiqov, H., Jo'rayev, N. (2011) *O'zbekiston tarixi* [History of Uzbekistan]. Book I. Tashkent: Sharq.

19.Tolstova, L.S. (1959) *Karakalpaki Ferganskoj doliny* [Karakalpaks of the Fergana Valley]. Nukus: Karakalpakskoe gosudarstvennoe izdatel'stvo.

20. Vokhidova, K.A. (2002) *Is'hoqxon Junaydulloxo'ja o'g'li Ibrat va uning ilmiy-tarixiy merosi* [Ishaqhon Junaidullahkhoja Ibrat and his scientific-historical heritage]. Abstract of Dissertation for the Candidate of Historical Sciences. Tashkent.

21. Bobobekov, Kh. (1996) *Po'latxon qo'zg'oloni* [Pulatkhan's Uprising]. Tashkent:

22. Litvinskij, B.A. (1984) *Istoricheskie sudby Vostochnogo Turkestana i Srednej Azii* (problemy etnokul'turnoj obshchnosti)]. In: Vostochnyj Turkestan i Srednyaya Aziya. Istoriya. Kul'tura. Svyazi. [Historical Destinies of East Turkestan and Central Asia. History. Culture. Connections]. Moscow: Nauka. Pp. 4-28.

23. Valikhanov, Ch.Ch. (1962) Materialy i issledovaniya o Kashgarii [Materials and Research on Kashgaria]. In: *Sobranie sochinenij* [Collected Works]. In 5 volumes. Vol. I. Alma-Ata, Kazahskoj sovetskoj enciklopedii.

24. Tolstov S.P. (ed.) (1963) *Narody Srednej Azii i Kazahstana (etnograficheskie ocherki)* [Peoples of Central Asia and Kazakhstan]. In 2 volumes. Vol. 2. Moscow: Izdatelstvo Akademii nauk SSSR.

25. Ziyoeva, D.Kh. (2022) *O'zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar (XIX asr – XX asr boshlari)* [Sources and Research on the History of Uzbekistan (XIX - early XX centuries)]. Tashkent: Nurafshon business.

Muallif haqida ma'lumot:

OLIMOV Nodirbek Anvarjon o'g'li – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrasi dotsenti; Andijon shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi. E-mail: nodirbek19930630@gmail.com